

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA  
O'RGATISHDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN  
FOYDALANISH**

*Norkulova Dilorom Oybekovna*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini modulli ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** modul, modulli ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, dars jarayoni, mustaqil fikrlash, , mustaqil izlanish, xalqaro baholash dasturlari, dunyoqarash.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yildan yilga o'z aksini turli jabhalarda namoyish etib kelmoqda. Xususan, bu kabi islohotlar ta'lim sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. „Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ning ishlab chiqilishi buning yaqqol dalilidir. Konsepsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad esa 2030-yilga qadar Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish va yuqori 30 talik natijani qayd etishdan iboratdir. Bu kabi Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish nafaqat O'zbekiston nomini bilim tomondan dunyoga tanitish, balki o'quvchilarga olgan bilimlarini xorijiy davlat o'quvchilari bilan solishtirib ko'rish imkonini ham beradi. Bu esa o'z-o'zidan o'quvchilardan chuqur bilimga egalik bilan bir qatorda mustaqil fikrlay olish qobiliyatini ham talab etadi.

Mustaqil fikrlash bu - shaxsning borliqdagi predmetga nisbatan bildirgan shaxsiy fikri bo'lib, u orqali inson har bir voqea-hodisaga o'z qarashlari bilan qaray oladi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yechim izlaydi. Insonda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun eng to'g'ri davr uning boshlang'ich maktab davriga to'g'ri kelishi ta'kidlanadi. Chunki bu davrda bola aqlini tanigan, bajarayotgan harakat va gapirayotgan hapini o'ylab idora eta oladigan yoshda bo'ladi. Bu vaqtdan kechiktirilgan sa'y-harakatlar ko'pincha insonni jaholatga yetaklaydi. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ulkan mas'uliyat yuklanadi. O'qitish jarayoni uchun eng samarali texnologiyani tanlash, bu texnologiyani ta'limning unumli o'rnida foydalanish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Xalq ta'lim tizimida ilmiy tadqiqot ishlari va ko'plab izlanishlar olib borib kelayotgan olimlar va mutaxassislarning fikrlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda eng ko'p qo'llanilayotgan va qo'llanish jarayonida ko'plab ijobiy natijalarni ko'rsatayotgan usul modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish bo'lib, quyida modulli ta'lim texnologiyasining mazmuni ochib beriladi.

Dastab, shuni ta'kidlash kerakki, modul tushunchasi lotinchadan olingan bo'lib, „qism, bo'lak“ ma'nolarini anglatadi. Bundan ko'rinadiki, modulli ta'lim texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni anglatadi. Boshlang'ich sinf darslarini o'qitishdagi modulli ta'lim texnologiyasi deganda, boshlang'ich sinf dars jarayonini modullar asosida loyihalashtirish tushuniladi. Bir-biridan ajratilgan modullarning faqatgina o'ziga xos bo'lgan faoliyat mazmuni hamda qamrab olgan ta'sir doirasi mavjud bo'ladi.

Modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslarning har biri alohida-alohida tanlab olinib, shu fanga xos bo'lgan mavzular mantiqiy tugallangan qismlarga bo'linadi, ya'ni modullarga ajratiladi. Har bir modul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ishlashga undovchi maxsus topshiriqlar shaklida tayyorlanadi. Bu asosda o'quvchi ma'lum bir mavzuning mantiqiy davomini qisman mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlarni bajargan holda o'rganadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida uchraydigan bir necha qisimli ertaklar va bir necha darsda o'rganish uchun mo'ljallangan matematikaga oid murakkab mavzular modulli ta'lim texnologiyasiga yaqqol misol bo'la oladi.

Modulli ta'lim texnologiyasiga oid bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri uning maqsadini aniq belgilab olishdan iborat bo'lib, ilgari surilgan maqsad qanchalik aniq bo'lsa, natijaga eltuvchi yo'l shunchalik qisqa bo'ladi va kam vaqt talab etadi. Bunda o'rgatiladigan tushunchalar va mulohazalar aniqlashtirib olinadi va shu asosda dars tashkil etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, insonga mustaqil fikrlashni o'rgatish uchun eng to'g'ri davr boshlang'ich maktab davri bo'lib, bu jarayon uchun tanlangan eng samarali texnologiya bu modulli ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Bu texnologiyadan qay darajada samaraga erishish boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik mahoratiga va tajribasiga bog'liqdir. To'g'ri tashkil etilgan modulli ta'lim texnologiyasiga asoslangan darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish bilan bir qatorda, chuqur egallangan bilimlar bilan uzviy bog'liqlikda Xalqaro baholash dasturlaridagi yuqori natijalarga tomon yetaklaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. Musayev A.A, Gazul.S.M, Anantchenko I.V. The information infrastructure design of an educational organization using virtualization technologies // Известия Санкт-Петербургского государственного технологического института – 2014. N 11(77). – С. 64-77
2. Газуль С.М, Ананченко И.В, Кияев В.И. Совершенствование образовательного процесса в вузе: активные методы обучения и гибридные информационные системы на основе виртуализации// Современные проблемы науки и образования – 2015. – N 2
3. Mavluda Qodirova . Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish// Scientific progress. -2021